

RAQS SAN’ATI – MILLIY MEROSIMIZNING IFODASI

Parpiyeva Parida Qoraboyevna

*Farg‘ona viloyati Beshariq tuman 18-sonli Madaniyat markazi
baletmesteri*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek raqsi san’atining tarixiy shakllanishi, mintaqaviy maktablari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Raqsning xalq ruhiyati, madaniy meros va estetik tarbiya vositasi sifatidagi ahamiyati keng tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy raqsning zamonaviy shakllari va yosh avlod orasida uni rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Muallif raqsni nafaqat sahna san’ati balki xalq hayotining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqadi va uni asrash, rivojlantirish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek raqsi, milliy san’at, madaniy meros, estetik tarbiya, xalq an’analari, raqs maktablari, zamonaviylik, folklor, sahna madaniyati.*

Har bir xalqning madaniyati, qadriyatlari va tarixiy tafakkuri san’at orqali namoyon bo‘ladi. San’atning turli yo‘nalishlari ichida raqs o‘zgacha o‘rin tutadi. Raqs – bu faqat harakatlar yig‘indisi emas, balki xalqning ruhiy holati, tarixiy xotirasi, orzu-umidlarining jo‘shqin ifodasidir. O‘zbek raqsi esa ming yillik tarixga ega bo‘lib, xalqimizning boy ma’naviy merosini o‘zida aks ettiradi. Bugungi kunda raqs san’ati nafaqat sahnalarda, balki xalq hayotida, urf-odatlarimizda ham chuqur ildiz otgan.

O‘zbek raqsining shakllanishi bevosita xalqimizning hayot tarziga, geografik joylashuviga va tarixiy taraqqiyotiga bog‘liq. Qadimgi davrlardan boshlab, bayramlar, to‘ylar va diniy marosimlar raqssiz tasavvur etilmagan. Arxeologik topilmalarda tasvirlangan raqsga oid suratlar, qadimgi gilam va sopol buyumlardagi harakatlar bu san’at turining qadimligini tasdiqlaydi. O‘rta asrlarda saroy san’ati sifatida rivojlangan raqs uslublari, masalan, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona maktablari shakllanib, har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ldi. Farg‘ona raqsi nafis va hissiyotli harakatlari bilan ajralib tursa, Buxoro raqsi ko‘proq ilohiylik va ramziy ma’noga ega. Xorazm raqsi esa kuchli ritmlar va jo‘shqin harakatlari bilan tanilgan.

Raqs – bu xalq ruhiyatining ko‘zgusidir. U orqali xalqning orzulari, g‘am-tashvishlari, quvonchi va g‘ururi ifodalanadi. Milliy raqslarda ishlatiladigan har bir harakat, libos, musiqa – barchasi chuqur ma’noga ega. O‘zbek raqsida qo‘l harakatlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali tabiat, muhabbat, mehr-oqibat kabi tushunchalar ifoda etiladi.

Raqs liboslari ham milliylikni namoyon etuvchi muhim unsurdir. Har bir mintaqaning liboslari o‘z rang-barangligi, bezaklari bilan ajralib turadi. Masalan, atlas va adras matolaridan tikilgan raqqosa liboslari o‘ziga xos jozibasi bilan sahnada nafislikni yaratadi.

Bugungi kunda raqs san’ati zamonaviy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashib, yangi shakllarda rivojlanmoqda. Milliy raqs elementlari asosida sahnalashtirilgan raqs

kompozitsiyalari turli xalqaro festivallarda namoyish qilinib, xalqimiz madaniyatini dunyoga tanitmoqda. Zamonaviy raqs maktablari, raqs studiyalari, iqtidorli yosh raqqosalar orqali milliy raqs san’ati yangi avlod orasida mashhurlik kasb etmoqda. Shu bilan birga, o‘zligimizni saqlab qolish va uni zamon bilan uyg‘unlashtirish raqqosalar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Raqsning tarbiyaviy va estetik ahamiyati

Raqs insonning jismoniy va estetik tarbiyasida ham katta o‘rin tutadi. Raqs orqali inson o‘z tanasini anglaydi, harakatlarni boshqarishni o‘rganadi, musiqani his qiladi. Bolalar va yoshlarda ritm tuyg‘usining rivojlanishi, madaniy saviyaning oshishi raqs orqali erishiladi. Milliy raqs to‘garaklari yoshlar qalbiga Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘ularini singdiradi. Ayniqsa, maktab va san’at maktablarida raqs darslarining bo‘lishi, yoshlarda estetik did va madaniy ongni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqs – bu yurakdan chiqqan, qalbni titratgan, xalq hayotini aks ettirgan san’at turidir. O‘zbek raqsi esa bu xalqning tarixini, orzularini, g‘ururini harakatlar orqali ifoda etgan beqiyos merosdir. Uni asrab-avaylash, yoshlarga o‘rgatish va dunyo miqyosida targ‘ib qilish bizning burchimizdir. Har bir raqqosa o‘z san’ati orqali o‘zbek madaniyatining elchisiga aylanadi. Shuning uchun raqs san’atiga e’tibor, bu – o‘zligimizga e’tibor demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. Milliy raqs san’atini rivojlantirish konsepsiyasi, Toshkent, 2022-yil.
2. Karimova M. O‘zbek raqsi: Tarix va taraqqiyot, Toshkent, “San’at” nashriyoti, 2021-yil, 87-bet.
3. Madraximova G. Milliy raqs san’atining rivojlanish bosqichlari, Toshkent Davlat san’at instituti maqolalari to‘plami, 2020.
4. Xudoyberdiyeva L. O‘zbek sahna raqsi – an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar, “Madaniyat va san’at” jurnali, 2021-yil, 3-son.